



Ermator Shuhrat Teshabayevich,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
 instituti ilmiy xodimi*

OILAVIY AJRALISHLARNING SABABLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada oilaviy ajralishlarning sabablari, ijtimoiy-psixologik oqibatlar va tavsiflariga oid ma'lumotlar, statistik axborotlar, tahliliy ma'lumotlar, ajralishlarning oilaga, bolalarga va jamiyatga nisbatan ta'siriga tegishli jihatlar keng yoritilgan.

Tayanch so'zlar: oila, to'liq va to'liq bo'lmagan oila, oilaviy ziddiyat, oilaviy ajralish, oilaviy ajralish sabablari, ajralishning ijtimoiy-psixologik oqibatlar, ajralishning bolalarga ta'siri, psixologik va ruhiy zarba, demografik vaziyat.

Аннотация. В данной статье широко освещаются сведения о причинах, социально-психологических последствиях и характеристиках семейных разводов, статистические сведения, аналитические данные, аспекты, связанные с влиянием разводов на семью, детей и общество.

Ключевые слова: семья, полная и неполная семья, семейный конфликт, развод, причины развода, социально-психологические последствия развода, влияние развода на детей, психологическая и психическая травма, демографическая ситуация.

Annotation. In this article information on the causes, socio-psychological consequences and descriptions of family divorces, statistical information, analytical data, aspects related to the impact of divorces on the family, children and society are widely covered.

Key words: family, full and single parent family, family conflict, family divorce, causes of family divorce, socio-psychological consequences of divorce, impacts of divorce on children, psychological and mental trauma, demographic situation.

Kirish. Oila muqaddas makondir. Shunga qaramasdan, hech qanday janjal, tortishuv yoki ziddiyatlar bo'lmagan oilani topish dargumon. Ammo turmushdagi barcha janjallarni, umidsizliklarni nikoh va oilani saqlab qolish yo'lidagi to'siqlarni yengib otishning iloji bo'lmay qoladi. Ba'zi hollarda ular ajralishga, ya'ni nikoh munosabatlarining to'xtatilishiga olib keladi.

Ajralish huquqi har qanday jamiyatda uzoq vaqtdan beri muhokama qilinadigan mavzu bo'lib kelgan. Odamlarning nafaqat nikoh qurishi, balki ularni bekor qilishi, ushbu huquqning jamiyatning tomonidan tan olinishi demokratik ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ajralishga oid qonunlari jamoatchilik fikrining ajralishga, ajrashgan kishilar

va ularning farzandlariga nisbatan ular istiqomat qilayotgan davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimi, xalqning milliy va madaniy urf-odatlar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga nisbatan munosabatida aniq namoyon bo'ladi.

Biroq ajralish, agar er-xotinning ma'lum bir axloqiy noyetukligi, ularning oila, bolalar uchun burch va mas'uliyat hissi yo'qligi natijasi bo'lsa, unda ajralish nikohning o'ziga xos antipodiga aylanishi mumkin.

Aqli teran, shuuri mustahkam bironta odam hayotida ajralish sodir bo'lishini xohlamaydi. Axir u nikohga kirishayotganda turmushi va hayoti yomonlashishini niyat qilmaydi-ku! Har bir inson barcha qayg'u va quvonchlarini boshqa odam

bilan baham ko‘rishga, juftining ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovi hamda moddiy yordamiga umid qiladi. “Ular uzoq va baxtli yashab, bir kunda vafot etdilar” iborasini o‘ziga nisbatan qo‘llash ajoyib bo‘ladi, deb o‘ylaydi.

Biroq ajralishlar hayotda hali ham sodir bo‘lmoqda. Ajralishlar statistikasi insonga dalda beradigan darajada emas. Uning sabablari nima bo‘lishidan qat’i nazar, hayot juda tez o‘zgarib bormoqda.

Asabiylashishlar, tushkunlik va sog‘inch ajralishning har qadamida, har bir bosqichida uchramoqda. Tuyg‘ular ikkala tomon uchun ham turli og‘riqlar qo‘shadi, ajralish paytida bola haqida gapirishning hojati yo‘q – bola doimo ajralish voqealari markazida bo‘ladi.

Ajralishda mavhum bir muammo hal qilinadi, lekin u boshqa ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarga quyidagilar kiradi:

- bolaga ota-onalar nima uchun ajralishayotganini qanday tushuntirish kerakligi;
- bola ota-onasining biri bilan yashashni o‘rganish kerakligi;
- er yoki xotin ajralishdan qanday omon qolishi kerakligi;
- ajralishganlar yolg‘iz yashashga ko‘nikishi kerakligi.


Asosiy qism. O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarning bugungi kundagi eng katta ijtimoiy muammolaridan biri ajralish muammosidir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda deyarli har uchinchi nikoh buzilmoqda yoki buzilish arafasida.

Davlat statistika qo‘mitasi viloyatlar bo‘yicha ajralishlar soni haqidagi ma‘lumotlarni e‘lon qildi. Ushbu ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning 1-yanvaridan 1-iyuliga qadar O‘zbekistonda 24572 juftlik ajrashgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich har ming aholiga 1,4 promilleni tashkil etadi. Ajralishlar bo‘yicha eng ko‘p holat Toshkent shahrida, eng kam ajralishlar esa Navoiy viloyatida qayd etilgan.


Davlat statistika qo‘mitasining ajrimlar bo‘yicha taqdim etgan ma‘lumotlari quyidagicha: Toshkent shahri – 2950 ta, Samarqand viloyati – 2569 ta, Toshkent viloyati – 2535 ta, Andijon viloyati – 2532 ta, Farg‘ona viloyati – 2527 ta, Namangan viloyati – 2183 ta, Qashqadaryo viloyati – 2006 ta, Buxoro viloyati – 1405 ta, Surxondaryo viloyati – 1348 ta, Qoraqalpog‘iston – 1056 ta, Xorazm viloyati – 1026

ta, Sirdaryo viloyati – 888 ta, Jizzax viloyati – 827 ta, Navoiy viloyati – 720 ta¹.

O‘zbekistonda 2022-yilning yanvar–iyun oylarida 108,9 mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan, bu tendensiya 2021-yilga nisbatan -0,7 promillega kamayganini kuzatish mumkin (2021-yilning yanvar–iyun oylarida 6,9 promille bo‘lgan).



2022-yil yanvar–iyun oylarida 24,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etgan hamda 2021-yilga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi (2021-yil yanvar–iyun oylarida 1,1 promille bo‘lgan).




Respublikada jami nikohdan ajrashganlarning 23,8 % i farzandsiz, 52,8 % i bitta farzand bilan va 23,4 % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

¹ https://upl.uz/obshestvo/26580-news.html?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop

² http://www.ronl.ru/referaty/semejnyaya_psihologiya/13362/

Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi



Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi erkaklar uchun 39,8 yoshni, ayollar uchun esa 33,5 yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshlilarga to'g'ri kelgan, ya'ni jami nikohdan ajrashganlarning 50,5 % ini tashkil etgan².

So'nggi o'ttiz yil davomida sobiq SSSR va hozirgi MDH mamlakatlarida ajralishlarning tashabbuskorlari 70-86% hollarda ayollar bo'lgan va hozir ham shunday. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollar uchun barcha ajralishlarning uchdan ikki qismi 25 yoshgacha, erkaklar uchun 30 yoshdan oldin sodir bo'ladi. Ayollar iqtisodiy jihatdan mustaqil va turmush o'rto'g'iga nisbatan talabchan bo'ladi, shuning uchun ham ular 75% hollarda ajralishni tashabbuskori bo'ladi va ajralishni boshlaydi³.

1968-yildan buyon olib borilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 60-80% hollarda ajralish tashabbuskori ayol hisoblanadi. Chunki yildan yilga ayolning oila oldidagi mas'uliyati ortib, erkaklarning oilani tartibga solishda va boshqarishdagi ishtiroki kamaymoqda. Tarixan, erkak katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan, u ovchi, boquvchi, oila boshlig'i bo'lgan. Zamonaviy sotsiologlarning ta'kidlashicha, ko'plab erkaklar nikohda o'z ehtiyojlarini qondirishning faqat mumkin bo'lgan, ya'ni qonuniy yo'lini qidira boshladi. Ulardan ba'zilar o'qish yillaridayoq o'zlarini ayoli hisobidan uy-joy bilan ta'minlash va doimiy ro'yxatga o'tishni afzal ko'radi.

2007-yilda Moskvada qiziqarli ekspress so'rov o'tkazilgan bo'lib, so'rovnoma bandlardan biri ajralish sababini ko'rsatish so'ralgan. Ushbu so'rovda qatnashgan 1080 ta ajrashgan ayollarning javoblari natijalari 1-jadvalda keltirilgan⁴.

Respondentlarning yarmidan ko'pi (53,7%) 25 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan ayollar, 35-39 yoshli ayollar – 19,2%, 24 yoshgacha bo'lgan

ayollar – 11%, 40-44 yoshdagi ayollar – 10,5%. Respondentlarning 51,6 foizi – 20-24 yoshda, 7,5 foizi 30-34 yoshda, 2,7 foizi esa 35 va undan katta yoshda turmush qurgan. Ajrashganlar orasida nikohning o'rtacha davomiyligi 9,4 yil, 24 foizi – 5 yildan kam, 20,1 foizi esa 15 yildan ortiq nikohda bo'lgan. Respondentlarning ko'pchiligining (83,1%) faqat bitta umumiy farzandi bor, 15,3 foizida – ikkita, 1,6 foizida – uch yoki undan ortiq bola bo'lgan (so'rovda faqat bolali ayollar ishtirok etgan).

1-jadval

Ajralish sabablari (ekspress so'rovga ko'ra)

Ajralish sabablari	Javoblar soni	Javoblarga ko'ra, %
Dunyoqarashi to'g'ri kelmadi, turli xarakterlar va h.k.	326	33,4
Mayxo'rlik, psixotrop preparatlarni iste'mol qilish	132	13,5
Xiyonat	78	8
Boshqa oilasi borligi	68	7
Oilaga nisbatan mas'uliyatsizligi	63	6,5

Ajralishning sabablari doimiy janjallardan tortib, to er-xotin qaysi filmni: melodrama yoki jangovar film tomosha qilishlarini baham ko'rmagan holatgacha bo'lgan turli xil vaziyatlar bo'lishi mumkin.

Ko'pincha ajralishning sababi er-xotinning bir-biriga nisbatan xiyonati bo'ladi. Mamlakatimizdagi barcha ajrimlarning to'rtidan bir qismi shu holat bilan bog'liq. Xiyonat sevgining antipodi bo'lib, er-xotinlik hissiyotlari sohasiga ta'sir qiladi. Nikoh xiyonati farovon va barqaror munosabatlar hukmron oilalarda emas, balki ziddiyatli, muammoli oilalarda, shuningdek, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar tanqidid, deyarli buzilgan darajagacha yetgan oilalarda uchraydi. "Xiyonat" motivi ko'proq yosh nikohlarning buzilishida kuzatiladi, bunga esa turmush o'rtoqlarning noyetukligi, beparvoligi, oilaviy qadriyatlar va "oilaviy qadriyatlar hamda aloqalarning muqaddasligi"ni tushunmasligi asosiy sabab bo'ladi.

Xiyonat turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi: rashk, janjal, turmush o'rtoqlaridan birining

² www.stat.uz – Давлат статистика қўмитаси сайти

³ <http://www.psy-doctor.ru/book01-57.php>

⁴ <http://www.psy-doctor.ru/book01-57.php>

shubha-gumonlari, bir-birini tushunmaslik, o'zaro hamdardlik va mehribonlik ko'rsatmaslik.

Nikohning sadoqati ko'p jihatdan nikohdan oldingi xatti-harakatlarga bog'liq: nikohdan oldin jinsiy aloqada bo'lgan erkak yoki ayolning nikoh sadoqatiga oid va'dani buzish ehtimoli ko'proq. Bu kabi haqiqiy sevgiga asoslanmagan erta jinsiy tajriba munosabatlarni baholashni hamda boshqa sherigi oldidagi burch hissi va majburiyatlarni kamaytiradi. Oilaviy burch hissi shaxsning turmush o'rtog'i oldidagi majburiyatlarini bilishi, shaxsiy manfaatlarini oila manfaatlari bilan uyg'unlashtirishidir⁵.

Xiyonatni unutib bo'lmaydi, hatto yetarli oilaviy tajribaga ega bo'lgan turmush o'rtoqlar ham xiyonat haqidagi xotira ko'p yillar davomida saqlab qolinishini tan olishadi.

Tadqiqotchilar, shuningdek, turmush o'rtog'ining qo'polligi, psixologik nomuvofiqligi tufayli ajralishlar foizining ko'payishini qayd etishadi.

Buning barchasiga zamonaviy insonning muloqot hamda madaniy darajasining o'sishi, shaxsga hurmat yoki aksincha, qo'pollik, psixologik nomuvofiqlik va undan ham yomoni – mayxo'rlik holatlari tez-tez takrolanishi ajralishning asosiy sababi bo'ladi.

Giyohvandlik va alkogolizm (barcha holatlar orasida ikkinchi o'rinda) kabi holatlar ajralishning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Sotsiologlarning fikricha, bunday hollarda ajralish tashabbuskorlari, odatda, ayollar bo'ladi. Darhaqiqat, alkogolga ruju qo'ygan er doimiy janjallar, og'ir moliyaviy ahvol va bolalarga salbiy ta'sir demak.

Ajralishning sababi turmush o'rtoqlardan birining haqiqiy xatti-harakati va uning o'rtasidagi nomuvofiqlik bo'lishi mumkin. Misol uchun, er va xotin o'rtasidagi nizolar xotin erining barcha bo'sh vaqtini uyda o'tkazishni xohlashi, er esa do'stlari bilan muloqot qilishni yoki futbol faoliyatiga qiziqishni afzal ko'rishidan kelib chiqishi mumkin. Er xotinidan ma'lum uy-xo'jalik vazifalarni yakka o'zi bajarishini, uning o'zidan ko'ra ko'proq xotini e'tiborli bo'lishini talab qilishi mumkin.

Ajralishlar turmush o'rtoqlardan birining ehtiyotsizligi tufayli sodir bo'lishi ham mumkin. Turmush qurgan ayollarning aksariyati o'ziga

oro berishni to'xtatadi. Erkaklarga esa bu holat yoqmaydi va nizo va xiyonatlarga sabab bo'ladi. Bu ko'p hollarda ajralishgacha olib boradi.

Ko'pgina nikohlar bola tug'ilgandan keyingi birinchi yildayoq otalik sinoviga dosh bera olmaydigan erkaklar tashabbusi bilan buziladi.

Qizlar qancha erta turmushga chiqsa, ajralish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. O'smirlar orasida ajralish ehtimoli 20 yoshda turmush qurganlarga qaraganda ikki baravar ko'pdir.

Biroq ba'zi sotsiologlarning fikricha, ajralishlar sonining ko'payishi an'anasi nikohlarning beqarorligi bilan emas, balki ajrimga osonlik bilan erishish imkoniyati mavjudligi bilan bog'liqdir. Ularning ta'kidlashicha, ajrashgan er-xotinlar soni alohida yashaydigan er-xotinlar sonidan oshgan. Shunday qilib, ajralish turmush o'rtoqlar o'rtasidagi jiddiy nizolarni hal qilishning odatiy usuliga aylanganga o'xshaydi⁶.

Ayrim er-xotinlarning nikohga nisbatan munosabatining o'zgarishi, ayollarning iqtisodiy ahvoli yaxshilanishi ham ajrimga sabab bo'lmoqda. Agar ayol doimiy ish joyiga ega bo'lsa, u faqat aliment, bolalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa davlat subsidiyalariga umidvor bo'lgandan ko'ra, imkoniyatlarini ishga solib o'zi ta'minlagani osonroqdir.

Ajralishning yana bir sababi shoshilinch, o'ylamasdan qurilgan nikohdir. Bunga "majburiy nikoh" (homiladorlik) deb ataladigan holatlar, kimdandir "qasos" olish, ba'zan esa birovning mulki va mansabidan foydalangan holda manfaat ko'rish yoki egalik qilish maqsadida tuzilgan nikohlar kiradi.

Turmush o'rtoqlar dastlabki hayot haqida o'z g'oyalarga ega bo'lishi mumkin, lekin nikoh davomida ulardan biri juftini o'z tomoniga og'dirishga harakat qilishi turmush o'rtog'ining ichki rivojlanishidagi uyg'unlik va mantiqni buzadi.

Ajralishlar nikohdagi yosh farqi, daromad va ta'lim darajasi, diniy va milliy mansublik tufayli ham sodir bo'lishi mumkin.

Agar ajralishning asosiy sabablari haqida gapiradigan bo'lsak, unda intellektual nomuvofiqlik birinchi o'rinda bo'ladi. Ko'p hollarda yosh qizlar o'z darajasiga to'g'ri kelmaydigan yigitlarga turmushga chiqadilar. Bu ayollar orasida "erkakni

⁵ http://www.ronl.ru/referaty/semejnaya_psihologiya/13362/

⁶ http://www.ronl.ru/referaty/semejnaya_psihologiya/13362/

qayta tarbiyalash mumkin” degan tushunchaning keng darajada tarqalgani bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunga kelib, sevgi va o‘zaro hurmatning yetishmasligi ajralish uchun yetarli sabab bo‘lib qoldi. Shunday qilib, ajralishlarning barcha sabablarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

– insonning beqarorligi yoki shaxs sifatida rivojlanmaganligi bilan bog‘liq sabablar (mantiqsiz nikoh, yomon odatlar, qo‘pollik, xiyonat va boshqalar);

– oilaning yashash sharoiti yaxshi emasligi bilan bog‘liq sabablar (uy-joy, moddiy ta’minot va boshqalar);

– birgalikda yashashni davom ettirishning obyektiv imkonini mavjud emasligi bilan bog‘liq sabablar (ruhiy kasallik, bepushtlik va boshqalar);

– alkogolizm, iqtisodiy inqiroz, ishsizlik, beqarorlik va depressiya⁷.

Jamiyatda ajralishni fojia deb hisoblash qabul qilingan. Ajralish turmush o‘rtoqlar uchun ham,

jamiyat uchun ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladigan bir nechta misollar ham mavjud. Bunday misollardan biri qayta turmush qurish bo‘lib, bu omil tug‘ilish dinamikasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har besh juftlikdan faqat bittasi o‘zida madaniyatli tarzda ajrashish uchun kuch topadi. Boshqa barcha ajralishlar ijtimoiy patologiyaga chalinib, psixologik muammolar – nikohda umidsizlik, qo‘rquv, asabiylashish, o‘z-o‘zidan shubhalanish va hatto bolalardan nafratlanishga olib keladi.

Xulosa. Ajralish jiddiy ijtimoiy muammoligi va har uchinchi nikoh buzilayotganini hisobga olgan holda uning asosiy sabablari xiyonat va ichkilikbozlik ekanini aytish mumkin. Qolaversa, odamlar bir-biri bilan kelisha olmagan, bir-birini yaxshi bilmasligi va eshitishni istamasligi, qo‘pollik, turli kasalliklar, uy-joy va moddiy muammolar tufayli ajrashishadi, ba’zilar esa shunchaki ahmoqligi sababli ajrashadi.

⁷ Долгова Т.П., Симонова Е.В. Проблемы комплексного изучения семьи. // Социология семьи: социологические исследования. – № 4, 2000. – С. 137-139.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Долгова Т.П., Симонова Е.В. Проблемы комплексного изучения семьи. // Социология семьи: социологические исследования. – № 4, 2000. – С. 137-139.
2. https://upl.uz/obshestvo/26580-news.html?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop
3. http://www.ronl.ru/referaty/semeynaya_psihologiya/13362/
4. www.stat.uz – Давлат статистика қўмитаси сайти
5. <http://www.psy-doctor.ru/book01-57.php>
6. http://www.ronl.ru/referaty/semeynaya_psihologiya/13362/